

Kambag'allikning ijtimoiy ildizlari: ijtimoiy omillar va ularni bartaraf etish**Fattoyeva Orzigul Normamadovna,***assistent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti,*orzugulfattoyeva@gmail.com**Jumanova Matluba Ahrorovna***Toshkent Arxetiktura Qurilish Univerisiteti**Menejment fakulteti 1-bosqich Talabasi*xurshidaxolmanova05@gmail.com**ARTICLE INFO****ABSTRACT:****ARTICLE HISTORY:***Received:18.04.2025**Revised: 19.04.2025**Accepted:23.04.2025***KEYWORDS:**

*Kambag'allik,
bandlik, korrupsiya,
iqtisodiy tengsizlik,
barqaror rivojlanish,
iqtisodiy omillar, sun'iy
intelekt, ishsizlik,
qashshoqlik chegarasi,
raqamli
transformatsiya,
ijtimoiy himoya.*

Ushbu maqolada kambag'allik tushunchasi, uning shakllari va asosiy ildizlari chuqur tahlil qilinadi. Kambag'allikning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda psixologik omillar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Shuningdek, ushbu holatning jamiyatga salbiy ta'siri, xorijiy tajribalar va O'zbekistonda olib borilayotgan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha strategiyalar ko'rib chiqiladi. Kambag'allikka qarshi kurashning samarali yo'llari sifatida zamonaviy kasblar, bandlikni oshirish va ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish taklif etiladi.

Kambag'allik – bu shunchaki moddiy nochorlik emas, balki inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga, sifatli ta'lim olishga sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishga, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga to'sqinlik qiluvchi ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy muammo hisoblanadi. Har bir davlatning barqaror rivojlanishi va fuqarolar farovonligini ta'minlash yo'lida kambag'allikka qarshi samarali choralar ko'rish muhim ahamiyatga ega. Ushbu holat globallashtirish davrining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida e'tirof etilishi ham bejizga emas. Bu muammo bilan nafaqat O'zbekiston balki AQSH, Janubiy Koreya,

Xitoy, Pokiston, Bangladesh kabi bir qator rivojlangan mamlakatlar ham kurashib kelmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar o'z tarixiy taraqqiyotining ilk bosqichida kambag'allikka qarshi samarali kurashish uchun davlat resurslarini safarbar qilgan, strategik dasturlar ishlab chiqqan va ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirgan kompleks yondashuv, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarning uyg'unlashuvi orqali kambag'allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga erishilgan. Bugungi kunda esa bu davlatlar tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu yo'nalishda izchil va maqsadli siyosat olib bormoqda. Xususan, 2021-2030-yillarga mo'ljallangan "Kambag'allikni qisqartirish" strategiyasi asosida aholining ijtimoiy himoyasi kuchaytirilib, zamonaviy bandlik va tadbirkorlik dasturlari joriy etilib, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad aholining hayot darajasini oshirish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish hamda barqaror va inklyuziv rivojlanishga sharoit yaratishdan iborat.

Kambag'allik insoniyat taraqqiyotining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida xalqaro miqyosda, xususan: Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Tarqqiyot dasturi (UNDP), Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) kabi nufuzli tashkilotlarning yillik hisobotlari kambag'allikni faqat daromad yetishmovchiligi emas, balki ijtimoiy tengsizlik, bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga yetarli kirish imkonining yo'qligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil holatiga dunyo bo'yicha 8.4 % aholi kuniga \$2.15 dan kam daromad bilan yashamoqda. [Jahon banki hisobotlari, 2023,112-bet]. Afrika qit'asining Saharadon janubiy hududlarida bu ko'rsatkich 35-40% atrofida bo'lsa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida 10-12% ni tashkil etmoqda. Bunday statistik tafovutlar kambag'allik global muammo bo'lsada, uning har bir mintaqadagi namoyon bo'lish shakllari va sabablari har xil ekanini ko'rsatadi [Jahon banki hisobotlari, 2023, 113-bet].

O'zbekiston Respublikasi misolida esa kambag'allik masalasiga tizimli yondashuv shakllantirilmoqda. 2021-2030-yillarga mo'ljallangan "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, kambag'al qatlamning holat darajasini oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik sohalarini rivojlantirish orqali kambag'allikni ildiziga yetib borishni maqsad qilgan [O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi "Kambag'allikni qisqartirish strategiyasi 2021-2030",

2021, 17-bet]. Shuningdek 2026-yilgacha kambag'allikni 2 barobarga, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 mln aholi daromadini oshirish hamda mehnat qobiliyatini ishga solish orqali 3 mln yoshlarni kambag'allikdan chiqarish belgilanmoqda. Kambag'al oilalarni "Individual dastur"lar tuzish orqali 2023-yilda 208 ming oilaning 873 ming oila a'zosi kambag'allikdan chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda kambag'allikdan 150 ming oila (va uning 700 ming oila a'zosi) chiqarilishi rejalashtirilgan va amalga oshirilgan. Bu esa islohotlarning bosqichma-bosqich natija bera boshlagidan dalolat beradi [O'zbekiston — 2030 strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nimalar belgilanmoqda?].

Kambag'allikni kamaytirish borasida olib borilyotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish uchun bir nechta muhim omillarni inobatga olish lozim. Avvalo, kambag'allik sabablari har bir hududda turlicha bo'lishi mumkinligi bois, mahalliy sharoitga moslashtirilgan strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Misol uchun, qishloq joylarda agrar sohani rivojlantirish, shahar hududlarida esa sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini kengaytirish orqali ish o'rinlarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, ta'lim tizimi va kasb-hunar o'qitishga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Chunki, zamonaviy mehnat bozorida talab qilinadigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan shaxslar ish topishda qiynaladi va kambag'allik xavfi ortadi. Shuning uchun ham, ta'lim sifati va uning amaliyot bilan uyug'unlanganligini ta'minlash muhim sanaladi. Ayniqsa, yoshlar orasida kasbga yo'naltirish va amaliy malaka beruvchi dasturlar orqali ularga o'zini mustahkamlash imkoniyatini yaratish kerak.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish ham kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi. Resurslarning adolatsiz taqsimlanishi, ijtimoiy yordamlarning noto'g'ri ajratilishi davlat dasturlarining samarasini susaytirishiga, va kambag'allikni qisqartirishga qarshi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, davlat boshqaruvida shaffoflik, tenglik va samaradorlik tamoyillarini mustahkamlash lozim.

Ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish orqali ehtiyojmand qatlamlarni aniqlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali manzilli yordam ko'rsatish, resurslarni isrof qilmasdan, ehtiyojmandlarga yo'naltirish imkoni tug'iladi.

Shu o'rinda insonlar hayotini yengillashtirishda ko'makchi bo'lib kelayotgan texnologik mashina va sun'iy intellektlarga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, texnologik taraqqiyot inson hayotini yengillashtirayotgan bo'lsa-da, ayrim salbiy jihatlarni ham yuzaga keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va robototexnika

sohasidagi yutuqlar natijasida ko'plab oddiy kasblar o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Ilgari insonlar bajarib kelgan vazifalarni endilikda texnologik qurilmalar, dasturiy ta'minotlar va robotlar samaraliroq, tezroq va kamroq xatolik bilan bajarishmoqda. Bu esa ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishiga, ko'plab insonlarning ishsiz qolishiga sabab bo'ladi. Bu holat esa o'z-o'zidan texnologik ishsizlikka olib keladi.

Texnologik ishsizlik – bu avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, robototexnika va boshqa texnologik yutuqlar natijasida inson mehnatining mashinalar yoki dasturiy ta'minotlar bilan almashtirilishi oqibatida ish o'rinlarining yo'qolishi holati. Bu iqtisodiy tushuncha bo'lib, ko'pincha sanoat inqiloblari yoki texnologik transformatsiyalar davrida kuzatiladi [Frey, C. B., & Osborne, M. A. 2017. 7].

Tarixda texnologik o'zgarishlar qisqa muddatda ish bozorida muammolar tug'dirgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bu o'zgarishlar iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilgan. Bugungi avtomatlashtirish inqilobi avvalgilaridan farq qiladi, deya hisoblovchi mualliflar soni ortmoqda va ular bu safar ishsizlik ortishiga olib keladi deb ogohlantirishmoqda [Understanding Technological Unemployment: A Review of Causes, Consequences, and Solutions. 2021,21]. Shu sababli, jamiyat oldida texnologik taraqqiyot bilan birga yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini qayta tayyorlash va zamonaviy kasblarga moslashtirish kabi muhim vazifalar turibdi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarini qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash ham muhim vazifalardan biridir. Bu orqali nafaqat kambag'allik darajasi kamayadi, balki jamiyatda barqaror rivojlanishga erishish mumkin bo'ladi. Shuningdek mamlakatda ichki turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarining yaratilishi kambag'allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy meros obyektlariga yaqin hududlarda yashovchi aholi uchun bu soha yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. Hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash, turistik gidlik, mehmonxona va transport xizmatlari kabi yo'nalishlarda ishbilarmonlik faollashadi. Bu esa mahalliy aholi bandligini oshiradi va daromad manbalarini ko'paytiradi. Natijada, an'anaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat madaniy merosni asrashga, balki ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allik — bu faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, texnologik va madaniy omillar bilan bog'liq murakkab muammodir. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi ayrim ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelmoqda. Shu bois bandlikni ta'minlash uchun zamonaviy kasblarga yo'naltirish, raqamli ko'nikmalarni

oshirish muhim. Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirish orqali hududlarda yangi ish o'rinlari yaratilib, aholining barqaror daromad topish imkoniyatlari kengayishiga olib keladi. Bu esa kambag'allikni kamaytirishda muhim vositadir. O'zbekiston tanlagan yo'l — ta'lim, bandlik, tadbirkorlik va turizmni rivojlantirish orqali kambag'allikka qarshi kurashish — samarali strategiya bo'lib, uni davomiylik va xalqaro tajriba bilan boyitish lozim. Chunki har bir insonning munosib hayot kechirish huquqi — barqaror va adolatli jamiyat poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasida 2021–2030-yillarda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi". – T.: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati to'g'risida statistik byulletenlar. – T.: www.stat.uz, 2023. World Bank.
3. Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course. – Washington, DC: The World Bank Group, 2022. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2021/2022. – New York: UNDP, 2022.
4. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook 2023. – Geneva: ILO, 2023.
5. Karimov S. Kambag'allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2020. – №4. – B. 45–50.
6. Ruzikulov B. Global va mahalliy miqyosda kambag'allikka qarshi kurash tajribalari // Ijtimoiy fanlar jurnali. – 2022. – №2. – B. 78–84
7. Murodova D. Ijtimoiy tenglik va kambag'allik muammosi // Yosh olimlar ilmiy to'plami. – 2021. – №6. – B. 102–106.9
8. Understanding Technological Unemployment: A Review of Causes, Consequences, and Solutions MDPI Open Access Journals, Societies, Jild 11, Son 2, 21-may, 2021. DOI: 10.3390/soc11020050
9. 2023 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433
10. Frey, C. B., & Osborne, M. A. (2017). "The future of employment: How susceptible are jobs to computerisation?"
11. O'zbekiston — 2030 strategiyasida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha nimalar belgilanmoqda? 18.09.2023 // <https://www.spot.uz/oz/2023/09/18/poverty-reduction/>